

**Navoiy Davlat Pedagogika Instituti**

**O'zbek filologiyasi fakulteti**

**3-kurs "v"gruh talabasi**

**Ochilova Ra'noning "O'zbek onomastikasi" fanidan**

# **Referati.**

**Mavzu: Antroponimlar**

**Tekshirdi: Nuritdinova Ra'no**

**Navoiy-2015**

***Mavzu:* Antroponimlar.**  
**Antroponimlarda**  
**so'zlararo tizimiy munosabatlarning**  
**ifodalanishi.**

***Reja:***

- 1. Antroponimlarning til lug'at tarkibida tutgan o'рни.**
- 2. Antroponimlarning turlari.**
- 3. Udumlar va ismlar.**
- 4. Antroponimik indikatorlar.**

O'zbek tili lug'at boyligining kattagina qismini insonlarga qo'yiluvchi maxsus nomlar tashkil etadi. Kishilarning atoqli otlari fanda antroponimlar deb yuritiladi. Antroponim (lotincha: antropos - odam, onima - ism, nom) kishi nomi demakdir.

Kishi nomlariga xos xususiyatlarni o'rganuvchi onomastikaning bir bo'limi antroponimikadir.

Antroponimlar til lug'at tarkibida o'z o'rniga va tizimiy xususiyatlariga ega. Yuqorida qayd qilinganidek, har bir onomastik tizim yana mayda tizimchalarga bo'linadi. Jumladan, atoqli otlar sistemasiga kiruvchi antroponimlar ham o'z navbatida boshqa mayda sistemalarga bo'linadi. Bular quyidagilar:

1. Ismlar;
2. Familiyalar;
3. Ota ismlari;
4. Taxalluslar;
5. Laqablar.

Ko'rinadiki, antroponimlar o'zbek tili leksik sistemasida ma'lum o'ringa ega. Faqat ungagina xos

bo'lgan indikatorlar mavjudligi bilan ham xarakterlanib turadi. Xuddi shuningdek, antroponimlar semantik, uslubiy va yasalish xususiyatlari bilan boshqa leksik birikmalardan ajralib turadi. Shuning uchun ham onomastik tadqiqotlarni sinxron va diaxron rejada sistem-struktur va tarixiy-qiyosiy metod asosida olib borish kerak.

Ismlar ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, ularda jamiyatning madaniyatli va ijtimoiy hayoti aks ettirilgan bo'ladi. Ismlar ma'lum bir shaxsning avlodi, uning jamiyatda tutgan o'rni haqida ham xabar beradi. Har bir ism ma'lum bir sabablarga ko'ra paydo bo'ladi. U ommabop yoki kam qo'llanuvchi bo'lishi mumkin. Ular bir nom o'z tarixi, "biografiyasi" va "geografiyasi"ga ega. Ismlar lingvostilistik jihatdan real yoki to'qima bo'lishi mumkin.

Ismlar o'z obyekti haqida ma'lum bir axborotlarni berishi mumkin. Bu axborotlar 3 ko'rinishga ega:

- 1) lisoniy;
- 2) nutqiy;

### 3) qomusiy.

Til birligi (lisoniy) sifatida ular shaxslarni ataydi, individlarni bir-biridan ajratadi.

Nutqiy informatsiyada esa so'zlovchining shu ismga munosabatini ifodalaydi. Masalan: "Gitler nomini eshitsam, jinim qo'zg'aydi". Bu gapda nomga nisbatan salbiy munosabat ifodalanmoqda.

Qomusiy axborot esa antroponim asoslangan applyativ ma'noga yaqinlashadi: Gulnora, Gulandom, Gulruxsor ismlarida gulga xos bo'lgan noziklik, yoqimlilik semalariga asoslaniladi.

Ismlarda milliylik xususiyati aks etadi.

Ismlar eskilik yoki yangilik bo'yog'iga ega bo'ladi.

Applyativlardan ko'chgan ismlarda sinonimiya hodisasi mavjud (To'xtasin, Tursun) ammo polisemiya mavjud emas. Polisemiya hodisasi (A.V. Superanskaya) anchagina uchraydi. Masalan: Alpomish - Hakimbek; Ibn Sino - Avitsenna; Arestotel - Arastu kabi.

Ko'rinadiki, antroponimlar, eng avvalo, so'zdir, til boyligining bir qismini tashkil qiladi. Shu bilan birga ular o'ziga xos qator xususiyatlarga ega.

Taniqli tilshunos V.N.Nikonovning aytishicha: "Bir-biridan ajralmas amaliy va nazariy vazifalarning mavjudligi bilan antroponimika baxtlidir". Shuning uchun ham antroponimlarga qiziqish, uni o'rganish qadimiy tarixga ega.

Yuz yillar davomida qator antroponimik tadqiqotlar yaratildi. Natijada kishi ismlarini o'rganuvchi fan antroponimika vujudga keldi. Bu sohaga bag'ishlab xalqaro onomastik konferensiyalar o'tkazildi. Jumladan, Butun ittifoq onomastik konferensiyalar Ulyanovsk (1967), Gorkiy (1969), Buxoro (1974), Xiva (1991) va boshqalar shular jumlasidandir.

Antroponimika masalalari bilan rus tilshunoslaridan A.M.Sobolevskiy, V.N.Nikonov, A.V.Superanskaya, S.I.Zinin va boshqalar shug'ullanganlar.

Turkologiya, jumladan, o'zbek tilshunosligida N.A.Baskakov, G.F.Sattorov, T.Jonuzoqov, R.Qo'ng'urov, J.Muxtorov, E.Begmatov, D.Abdurahmonov, E.Qilichev, I.Xudoynazarov va

boshqalar ilmiy tadqiqot olib borganlar. Jumladan, E.Begmatov 1965-yilda "O'zbek tili antroponimikasi", I.Xudoynazarov esa "Antroponimlarning til lug'at tizimidagi o'rni va ularning semantik uslubiy xususiyatlari" (1998) mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qildilar. 2000-yilda esa N.Husanov "XV asr yozma yodgorliklari tilidagi antroponimlarning leksik-semantik xususiyatlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildi.

O'zbek tiliga Davlat maqomi berilgandan so'ng yuzaga kelgan ikki nomzodlik va bir doktorlik dissertatsiyalarining muvaffaqiyatli himoya qilinganligi antroponimik tadqiqotlar nihoyatda dolzarb va ularni har tomonlama o'rganish zamon talabi ekanligini ko'rsatadi. Mustaqil O'zbekistonning yangi ijtimoiy, iqlisodiy va siyosiy rivojlanish yo'liga qadam qo'yishi onomastik, jumladan, antroponimik sistemani yanada takomillashtirishni talab qilmoqda.

Kishilar chaqaloqqa berilgan nom uning hayotiga, taqdiri va baxtiga katta ta'sir ko'rsatadi deb ishonganlar.Bu kabi tasavvurlar nom kishining

mohiyatidir, ism kishining o'ziga o'xshaydi degan noto'g'ri tushuncha bilan bog'liq. Shu sababli ham kishilar ongida "xosiyatli va xosiyatsiz" ismlar mavjudligi haqida turli ishonchlar yuzaga keladi. Bunday ishonchning xilma-xil ko'rinishlari turli millat onomastikasidagi ismlarda va bolaga nom berish odatlarida yorqin ko'rinadi. Masalan, karagaslarda vafot etgan odamning nomini yangi tug'ilgan chaqaloqqa qo'yishmaydi.

Shuningdek, goldarning o'z bolasiga ism sifatida yaxshi kishilar nomini tanlashi ham bejiz emas. Xosiyatli nom kishini baxtli qiladi, bolada yaxshi xislatlarni uyg'otadi. Yomon nom esa kishiga baxtsizlik, kasallik, o'lim, ofat keltiradi deb hisoblashadi. Keltirilgan odatlar yuzasidan olimlardan V.N. Vasilyev, P.P. Shimkevich, Y.L. Layants, D.K. Zeleninlar qiziqarli materiallarni to'plashgan.

**TABARRUK NOMLAR.** Bolaga ism tanlashda o'tmish ajdodlar, ota-bobolarga ism sifatida xizmat qilgan atoqli otlarga murojaat qilish, chaqaloqqa nomni o'sha otlar orasidan saylashga intilish dunyoning

turli qit'alarida yashovchi xalqlarning keng amal qiluvchi rasm-rusumlaridandir. Bu odatning o'tmishda Saxalin, Bering bo'g'ozi hamda Afrika qit'asida yashovchi bir qator xalqlarda uchrashi mavjud adabiyotlarda qayd etilgan. Bu odatga O'rta Osiyo xalqlari ham amal qiladilar. Tabarruk ismlar qatoriga islom dini bilan bog'liq qator nomlar kiradi. Bularning asosiy qismi arabcha nomlardir. Ammo o'zbek tilining turkiy qatlam ismlari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Ularni quyidagi guruhga ajratish mumkin:

#### 1. Ism bag'ishlovlar (memorativlar)

O'zbek tili antroponimiyasining turkiy qatlamida quyidagi memorativ ismlar uchraydi:

1. Osmoniy jismlar nomidan yasalgan ismlar: Yulduz, Oyxon, Kuntug'mish

2. Turli tabiat hodisalari va stixiyalari nomidan yasalgan: Bo'ron, Yashin.

3. Turli geografik obyektlarning nomlaridan yasalgan nomlar: O'rmon, Daryo.

4.Hayvon va qushlarning nomi bilan aloqador ismlar:Qo'chqor,Lochin.

5.Turkiy qabila va urug'larning nomidan yasalgan antroponimlar, bu nomlarga o'zbekcha va turkiy xalqlar uchun mushtarak bo'lgan etnonimlardan yasalgan ismlar kiradi:Do'rmon,Barlos.

Ism tilaklar(dezirativlar).

Bu tip nomlariga quyidagilar kiradi:

1.Ota-onalar chaqaloqning sog'-omon o'sishini,sonining ko'payishini xohlamog uchun:Ko'pay, O'lmas

2.Yangi tug'ilgan bola eson-omon ulga'yishi va oila a'zolari safiga qo'shilib ketishini xohlashadi:Ilash,Qo'ldosh,Yo'ldosh

3.Chaqaloq ulg'ayib ota-onasining o'rnini bosishni xohlashadi:O'rin,O'tagan.

4.Keyingi farzandlarini qiz emas o'g'il bo'lishini xohlashadi:O'g'ilo.

**Antroponimik indikatorlar.**O'zbek tilshunosligida Z.Do'simov tomonimik indikatorlar haqida ilk bor alohida maqola e'lon qildi.Ammo antroponimik

indikatorlar haqida haligacha biror boshqa tadqiqotni uchratmadik.

Indikatorlar antroponimlarni tilning lug'at tarkibidagi o'ziga xos alohida bir tizimga birlashtiruvchi vositadir. Ular kishi ismlari tarkibida kelib, uni biror jihatdan xarakterlab, konnotativ ma'no ifodalaydi. Har bir indikatorni qabul qilgan antroponim shu indikator uchun mikrotekst vazifasini bajaradi.

Antroponimlarga qo'shilish xususiyatiga ko'ra indikatorlar quyidagilarga bo'linadi:

1. erkaklar ismiga xos: jon, xon, bek, sher, arslon.

2. ayollar ismiga xos: oy, oyim, beka, gul, pari.

3. erkak va ayol ismiga qo'shilishiga ko'ra betaraf bo'lgan indikatorlar: jon, xon.

O`zbek filologiya fakuteti 3-”V”guruh talabasi Ochilova Ra`noning “O`zbek onomastikasi”fanidan “O`zbek tilida antroponimlar” mavzusida yozgan referat ishiga filologiya fanlari nomzodi Nuritdinova Ra`no Sevdiyevnaning taqrizi .

Ushbu referatda antroponimlarning til lug'at tarkibida o'z o'rniga va tizimiy xususiyatlarga egaligi shuningdek, antroponimlarning o'zbek tili leksik sistemasida ma'lum o'ringa egaligi haqida fikr-mulohazalar berilgan. Antroponimlar faqat ungagina xos bo'lgan indikatorlar mavjudligi bilan ham xarakterlanib turishi. Xuddi shuningdek, antroponimlar semantik, uslubiy va yasalish xususiyatlari bilan boshqa leksik birikmalardan ajralib turishi boshqa leksik birliklardan farqlanishi ta`kidlangan. Shuning uchun ham onomastik tadqiqotlarni sinxron va diaxron rejada sistem-struktor va tarixiy-qiyosiy metod asosida olib borish kerakligi aytilgan. O'zbek tiliga Davlat maqomi berilgandan so'ng yuzaga kelgan ikki nomzodlik va bir doktorlik dissertatsiyalarining muvaffaqiyatli himoya qilinganligi antroponimik tadqiqotlar nihoyatda dolzarb va ularni har tomonlama o'rganish zamon talabi ekanligini ko'rsatadi. Ushbu referatda o`zbek ismlari va ularning tanlanish asoslari haqida ham tahlillar berilgan.

Referat reja asosida antroponimlarning til lug`at tarkibidagi tutgan o`rni, antroponimlarning turlari, udumlar va ismlar, antroponimik indikatorlar tartibida yoritilgan.

O`zbek tilshunosligi kafedrası mudiri  
f.f.n. R.Nuritdinova.